



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING AXLOQIY QADRIYATLARINI
SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR.**

Isaxanova Moxidil Erkinovna

Qo`qon DU o`qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada axloqiy tushunchalarning kognitiv rivojlanish, refleksiya, taqlid va ijtimoiy muhit omillari orqali shakllanishi batafsil yoritiladi. Shuningdek, bolalarning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati va jamiyatda moslashuvi psixologik nuqtai nazardan ko`rib chiqiladi.*

Kalit so`zlar: *Axloqiy qadriyatlar, psixologik asoslar, kognitiv rivojlanish, refleksiya, taqlid, ijtimoiy muhit, motivatsiya, shaxsiy identifikatsiya, norma va qadriyatlar, jamiyatga moslashish*

Maktab ta'lim jarayoni bolalarning ijtimoiy rivojlanishi va shaxs sifatida kamol topishida katta rol o'ynaydi. An'anaviy tarbiya tizimiga ko'ra, o'quvchi maktabga qadam qo'ygan birinchi kunlaridanoq, uning shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvoriga ta'sir etadigan qoidalar bilan tanishtiriladi. Bu qoidalar bolalarning ijtimoiy munosabatlarni tushunishi va kelajakda ularga amal qilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy qadriyatlar inson kamolotiga ko'p qirrali ta'sir qiladi: ular jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalariga amal qilishni rag'batlantiradi va bir vaqtning o'zida insonni erkin, vijdonli va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantiradi. Biroq, qadriyatlarni oddiy tartib-qoidalar sifatida tushunib bo'lmaydi. Ularning mohiyati inson ongida sub'ektiv ma'no sifatida namoyon bo'lib, hayot faoliyati davomida seziladi va anglanadi. Axloqiy qadriyatlar shaxsning o'z maqsadlariga erishishda yo'l boshchi vazifasini bajaradi.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, axloqiy qadriyatlar biologik ehtiyojlar qatorida inson shaxsiyatini shakllantiruvchi muhim motivatsiya manbai hisoblanadi. Axloq fenomeni sifatida, qadriyatlar mustaqil ravishda, shaxslararo muloqot va faol ijtimoiy faoliyatda shakllanadi. Kichik maktab yoshida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish mumkinmi? Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni bir qator psixologik mexanizmlarga bog'liq. Ushbu mexanizmlar bolaning ongli ravishda axloqiy qarorlar qabul qilishi, shaxsiy idrokni rivojlantirishi va ijtimoiy munosabatlarga moslashishini ta'minlaydi. Boshlang'ich maktab yoshida bu jarayon to'liq tizimli shakllanish bosqichiga o'tadi va bola shaxsiyatining asosiy unsurlaridan biriga aylanadi.

Axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda turli xil psixologik nazariyalar asosiy rol o'ynaydi. Ularning har biri bolalarda axloqiy tushunchalarni rivojlantirish mexanizmlarini o'zgacha yondashuv orqali tushuntiradi.

Jan Piaje bolalarda kognitiv taraqqiyot va axloqiy qadriyatlar rivojlanishini bir-biriga bog'lagan holda tushuntirgan. Uning nazariyasiga ko'ra, bolalar axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishda ikki asosiy bosqichni bosib o'tadilar:



Geteronom axloq (5-8 yosh) – bolalar axloqni tashqi ta'sir asosida qabul qiladilar. Ular qoidalarni bekor qilib bo'lmaydi deb hisoblab, faqat kattalarning ko'rsatmalariga rioya qiladilar.

Avtonom axloq (9-12 yosh) – bolalar axloqiy normalarni shaxsiy ong va tushuncha asosida baholashni boshlaydilar. Ular o'z xatti-harakatlariga baho berish va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Lev Vigotskiy bolalarda ijtimoiy muhit ta'siri orqali axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayoniga e'tibor qaratib, ushbu jarayonni bilish faoliyati bilan bog'lagan. Bolalar axloqiy normalarni tengdoshlar va kattalar xulq-atvorini kuzatib, taqlid orqali o'zlashtiradilar. Ularda ijtimoiy muomala jarayonida axloqiy tushunchalarni idrok qilish va o'z hayotlarida qo'llash qobiliyati paydo bo'ladi.

Lourens Kolberg axloqiy qadriyatlarning shakllanishi bolalarning motivatsiyasidan kelib chiqishini ta'kidlaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, bolalar axloqni uchta asosiy bosqich orqali o'zlashtiradilar:

Konventsional oldingi bosqich – axloqiy tushunchalar jazo va mukofot asosida shakllanadi.

Konventsional bosqich – bolalar axloqiy normalarni jamoaviy munosabatlar orqali qabul qiladilar.

Konventsionaldan keyingi bosqich – shaxs axloqiy qadriyatlarni mustaqil ravishda anglab yetadi va umumiy tamoyillar asosida qaror qabul qiladi.

Kichik maktab yoshida bolalarda axloqiy qadriyatlarning shakllanishi bir necha psixologik jarayonlar bilan bog'liq. Bolalarda shaxsiy ong shakllanishi, o'zlikni anglash va refleksiya jarayonlari ularning axloqiy tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi.

Shaxsiy ong va axloqiy qadriyatlar, Bolalarda shaxsiy ong shakllanishi ularning atrof-muhit bilan muloqoti natijasida boshlanadi. Birinchi sinfga kirgan bolalarda ijtimoiy muhitga moslashish, yangi qoidalarni qabul qilish va ularga rioya qilish jarayoni kechadi. Ularning ichki «Men» - kontseptsiyasi asta-sekin shakllanib, axloqiy qadriyatlarga asoslanadi.

Axloqiy normalar va refleksiya. Bolalar axloqiy qoidalarni faqatgina tashqi ta'sir asosida emas, balki refleksiya orqali shakllantiradi. Masalan, birinchi sinfda o'quvchi muallim va tengdoshlar bilan munosabatda axloqiy xatti-harakatiga baho berishni boshlaydi. Unga berilgan ijtimoiy baholar shaxsiy qadriyatlarining mustahkamlanishiga yordam beradi.

Shaxsiy identifikatsiya va axloqiy rivojlanish. Bolalar tengdoshlari va kattalar bilan muloqot jarayonida axloqiy shakllanishni kuchaytiradi. Ularda shaxsiy identifikatsiya jarayoni kechadi, ya'ni bola o'zini jamiyatda mas'uliyatli shaxs sifatida anglay boshlaydi. Ushbu jarayonda ijtimoiy munosabatlar, jamoaviy ish va axloqiy tarbiya muhim rol o'ynaydi.

Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida bir necha asosiy psixologik mexanizmlar ishtirok etadi:





Taqlid (imitatsiya) mexanizmi – bolalar kattalar va tengdoshlar xulq-atvorini kuzatib, ularni taqlid qiladilar. Maktabdagi o'quv jarayonida bolalar o'qituvchi va tengdoshlaridan axloqiy normalarni qabul qilishlari mumkin.

Refleksiya mexanizmi – bolalar o'z xatti-harakatiga ongli ravishda baho berishni o'rganadilar. Ularning shaxsiy qarorlariga ta'sir etuvchi ichki mulohazalar rivojlanib, axloqiy qadriyatlarining mustahkamlanishiga olib keladi.

Empatiya va ijtimoiy idrok mexanizmi – bolalar boshqalarning ehtiroslarini tushunish va his qilish qobiliyatini rivojlantiradilar. Ushbu mexanizm bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Ruhiy mushohada mexanizmi – bolalar axloqiy holatlar va xatti-harakatlarga nisbatan ongli ravishda mushohada yuritishni boshlaydilar.

Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni bolalarda bir nechta bosqichdan o'tadi:

Boshlang'ich axloqiy shakllanish (5-7 yosh) – bolalar axloqiy tushunchalarni qabul qilishni boshlaydilar.

Axloqiy identifikatsiya (7-9 yosh) – bolalar shaxsiy ong asosida axloqni tushunishni rivojlantiradilar.

Mustahkamlash va avtonom axloq (9-12 yosh) – bolalar ijtimoiy munosabatlarda axloqiy tushunchalarni faol qo'llashni boshlaydilar.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun maktab muhiti va jamiyat munosabatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida ularning jamoa bilan munosabati, hamkorlikdagi faoliyat, o'qituvchi va tengdoshlari bilan muloqoti muhim o'rin tutadi. Axloqiy qadriyatlarining mustahkamlanishi bolaning shaxsiy o'zlikni anglashi va ijtimoiy kompetentlikni oshirish bilan bog'liq.

Xulosa. Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish kichik maktab yoshidagi bolalar uchun muhim psixologik jarayondir. Ushbu jarayonda miya faoliyati, kognitiv mexanizmlar va ijtimoiy ta'sir katta rol o'ynaydi. Axloqiy qadriyatlarni muvaffaqiyatli shakllantirish bolalarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To'ychieva S.M. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2009 .
2. Dusmuxamedova SH.A., Tillashayxova X.A., Baykunosova G.Yu., Ziyavitdinova G.Z., «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya» - Darslik Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, 2020y.
3. G'oziyev Ye. "Ontogenez psixologiyasi".-T.: Noshir. 2010
4. Asper K. Ichki bola va o'z-o'zini hurmat qilish. - M.: Dobrosvet, 2008 yil.
5. Boryakova N.Yu. Bolalarni ta'lim va tarbiyalashning pedagogik tizimlari. - M.: Astrel, 2008 yil.
6. Fennel M. O'z-o'zini hurmat qilishni qanday yaxshilash mumkin. – M.: AST, 2005 yil.

